

Qaro ko‘zum (II- qism)

Alisher Navoiy

G‘AZALLAR (DAVOM)

*Labing bu xastag‘a nevcun takallum etmadi ish
Ki, bir sukunj bila hosil etsa yuz olqish.*

*Otar hamisha qoshi yosi birla g‘amza o‘qin,
Agarchi bo‘lmas o‘q otmoq, yo‘q ersa yoda kerish.
Boshog‘laringmu ekin bag‘rim ichra yo qoldi
Iting chu tu‘ma uchun anda mahkam ayladi tish.
Tariqi ishq aro komildurur ko‘ngul, ne ajab,
Kamol topmoq etib ishni ishq ila varzish.
Zaifjismni to tig‘i yordi — nolonmen,
Nechaki chiqmas uni, necha chok bo‘lsa qamish.
Chekar gul ollida bulbul fig‘on, magar bildi
Ki, o‘tsa vasl bahori, xazoni furqat emish.
Navoiy, asra nihon ishq nuktasin zinhor
Ki, ishq piri manga yoshurun bu nukta demish.*

* * *

*Menga nomehribon yor o‘zgalarga mehribon ermish,
Mening jonim olib, ag‘yorg‘a oromijon ermish.
Tan uzra emdi fahm ettim adadsiz toza dog‘imni
Ki, har bir-bir qorarg‘an shomi hajrimdin nishon ermish.
Buzulg‘an ko‘nglum atrofingda‘i zaxm ichra novaklar
Baliyat qushlariyu zaxm alarg‘a oshyon ermish.
Raqibi sindurub ko‘nglinu men yig‘lab anga, lekin
Su keltirmak hamonu ko‘za sindurmoq hamon ermish.
Baliyat dashtida zore ko‘rub Majnun sog‘ing‘aylar,
Ko‘ngul otlig‘ bizing ovorai bexonumon ermish.
Xayoling xayli ko‘nglum dashtida chun qildilar manzil,
Har o‘t yoqqan yer ul manzilda bir dog‘i nihon ermish.
Zamon oshubidin ko‘nglumga yuz shiddat yetar erdi,
Chu fahm ettim — munga bois ul oshubi zamon ermish.
Agarchi men yomonmen, yaxshidurkim mu‘tarifdurmen,
O‘zin yaxshi tasavvur aylagan mendin yomon ermish.
Navoiy nazmini ko‘rdum quyosh lavhig‘a sabt etkan,
Buyurg‘an ani oliy qadr shohi xurdadon ermish.*

* * *

*Javzo kunidin dog‘i ul chehra jamil ermish,
Yaldo tunidin dog‘i ul zulf taval ermish.
Har qatra ko‘ngul qoni jon berdi o‘luk tang‘a,
Hosiyatini so‘rduq— la‘lingg‘a qatil ermish.
Gulzor aro nilufar ochildi, gumon ettim —
Xol o‘rnig‘a har yuzda bir nuqtai nil ermish.
Hijron tuni daf‘ o‘lg‘ach, bildimki, yuz ochibsen,
Xurshid vujudig‘a tong nuri dalil ermish.*